

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / SENTABR /
9-SON, I-QISM

Google
scholar

RePEc
RESEARCH PAPERS
IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
I-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdulkarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG'BATLANTIRISH VA BAHOLASHNING XORIJIY TAJRIBASI	34
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna	
BREND POZITSİYALASH STRATEGİYASINI ISHLAB CHIQISHDA BOZOR TADQIQOTLARI METODIKASI	41
Jumayeva Zulfiya Qayumovna	
GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIKNING O'ZBEKISTON MILLIY VALYUTASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI	46
Davlatova Nilufar Avazovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGI: MANZILLI SAMARADORLIK INDEKSI (MSI) ASOSIDA BANDLIK DASTURLARINI BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	50
Eshmurodov Adhamjon Rahmonjonovich	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ООО «SAM PULSAR DISTRIBUTORS»	61
Мусаева Шоира Азимовна	
KICHIK BIZNESDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	68
Tukhtasinova Intizorkhon Sherzod qizi	
GLOBALLASHUV DAVRIDA JAHON IQTISODIYOTIDAGI O'ZGARISHLARNING YANGI O'ZBEKISTONGA TA'SIRI	73
Jahongir Nurulloevich Jurayev	
YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGI	77
Nasulloeva Oydiyoy Saidovna	
ПРИВЛЕЧЕНИЕ МОЛОДЁЖИ К ЭКСПОРТУ ЦИФРОВЫХ УСЛУГ: МЕХАНИЗМ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ	82
Палвонова Севара Бахромовна	
MINTAQA IQTISODIYOTINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHDA IT-PARKLARNING NAZARIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI	94
Sultanova Zuxra Jaksilikovna	
INSON KAPITALINING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI	99
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich	
Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI MONITORING QILISHNING INTEGRATSIYALASHGAN UZEMS MODELI	103
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
AUDIT JARAYONIDA MOLIYAVIY FIRIBGARLIK BELGILARINI ANIQLASHNING TAHLILIY TARTIB-TAOMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH	108
Xusanov Shuxrat Burxanovich	
FROM AUTOMATION TO STANDARDIZATION: OPERATIONS MANAGEMENT CHALLENGES IN UZBEKISTAN'S HOSPITALITY SECTOR	115
Asal Kadirova	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	125
Нигматова Сугдиена Жалолiddин кизи	



SANOAT 4.0 TEXNOLOGIYALARINING RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI VA UZOQ MUDDATLI IQTISODIY O'SISHDAGI ROLI	131
Komilova Dilafruz Rustam qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	137
Samiyeva Gulnoza Toxirovna	
O'taganov Fazliddin Isroil o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СТРАХОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТУРИСТСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ	142
Эргашева Файёза Боходир кизи	
МЕХАНИЗМЫ ГАРМОНИЗАЦИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО УЧЕТА И ОТЧЕТНОСТИ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКЕ	146
Жиенбаева Айсанем Оразбаевна	
XORAZM VILOYATIDA SHOLI YETISHTIRISHNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNING RESPUBLIKA SHOLICHILIGIDAGI O'RNI	154
Matrasulova Feruza Baxodirovna	
YIRIK KORXONALARDA SOLIQ NAZORATINING HUQUQIY ASOSLARI VA HORIIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	159
Qo'shaqov Asrorjon Nematjonovich	
ФОРМИРОВАНИЕ РЕЗУЛЬТАТИВНОЙ СТРУКТУРЫ БЮДЖЕТНЫХ ПРОГРАММ В СФЕРЕ СТРОИТЕЛЬСТВА И ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНОГО ХОЗЯЙСТВА: МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	166
Мирзаева Дилдора Иномовна	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI VA KREDIT RISKLARI HOLATINI BAHOLASH (DAVLAT BANKLARI MISOLIDA)	174
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	183
Aslanova Dilnoza Fatilloyevna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TASHKILOT BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIY YONDASHUVLAR VA BAHOLASH METODOLOGIYASI	187
Raxmonova Nilufar Umedovna	
HUDUDIIY IQTISODIYOT TARKIBIIY O'ZGARISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA SANOATLASHUV, XIZMATLAR SEKTORI VA INVESTITSIYALARNING ROLI	196
Raxmonqulova Nafisa Olimjon qizi	
SOLIQ BAZASI TUSHUNCHASI, UNING MAZMUNI VA IQTISODIY MOHIYATI	201
Gadoyeva Nilufar Erkinovna	



SOLIQ BAZASI TUSHUNCHASI, UNING MAZMUNI VA IQTISODIY MOHIYATI

Gadoyeva Nilufar Erkinovna

Toshkent xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: nilufargadoeva@icloud.com

Annotatsiya. Soliq bazasining davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi o'рни va uning fiskal samaradorlikka ta'siri tadqiq etilgan. Soliq bazasining iqtisodiy-huquqiy mazmuni yoritilib, uning kengligi, diversifikatsiyasi va barqarorligi fiskal samaradorlikni belgilovchi muhim mezonlar sifatida asoslangan. Soliq bazasini kengaytirishning iqtisodiy, institutsional va ma'muriy mexanizmlari tahlil qilinib, soliqqa tortish qamrovini kengaytirishning budjet daromadlari barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, soliq bazasi va soliq tushumlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosida O'zbekistonda soliq bazasini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan.

Kalit so'zlar: soliq bazasi, soliq salohiyati, soliq tushumlari, davlat budjeti, fiskal samaradorlik, soliq ma'muriyatchiligi, soliq bazasini kengaytirish, budjet barqarorligi.

Аннотация. Исследована роль налоговой базы в формировании доходов государственного бюджета и её влияние на фискальную эффективность. Раскрыто экономико-правовое содержание налоговой базы, а её широта, диверсификация и устойчивость обоснованы как важные критерии, определяющие фискальную эффективность. Проанализированы экономические, институциональные и административные механизмы расширения налоговой базы, а также раскрыто значение расширения охвата налогообложения в обеспечении стабильности бюджетных доходов. На основе взаимосвязи между налоговой базой и налоговыми поступлениями определены приоритетные направления совершенствования налоговой базы в Узбекистане.

Ключевые слова: налоговая база, налоговый потенциал, налоговые поступления, государственный бюджет, фискальная эффективность, налоговое администрирование, расширение налоговой базы, устойчивость бюджета.

Abstract. The role of the tax base in generating state budget revenues and its impact on fiscal efficiency are examined. The economic and legal dimensions of the tax base are clarified, while its breadth, diversification, and stability are substantiated as key criteria determining fiscal efficiency. The economic, institutional, and administrative mechanisms for broadening the tax base are analyzed, with particular emphasis on the importance of expanding tax coverage in ensuring the stability of budget revenues. Furthermore, priority areas for improving the tax base in Uzbekistan are identified based on the relationship between the tax base and tax revenues.

Keywords: tax base, tax potential, tax revenues, state budget, fiscal efficiency, tax administration, tax base expansion, budget stability.

KIRISH

Soliq tizimining fiskal samaradorligini belgilashda soliq stavkasining darajasi bilan bir qatorda, soliqqa tortiladigan iqtisodiy faoliyatning qamrovi, ya'ni soliq bazasining hajmi va tarkibi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Davlat budjeti daromadlarining barqaror shakllanishi faqat belgilangan soliq stavkalariga emas, balki iqtisodiyotda yaratilgan daromad, foyda, iste'mol, mol-mulk va boshqa iqtisodiy qiymatlarning qay darajada soliq munosabatlari doirasiga jalb etilganiga bog'liq. Shu sababli soliq bazasi kategoriyasi soliqni hisoblashning texnik elementi sifatidagina emas, balki iqtisodiyotda mavjud fiskal resurslarni davlat budjeti daromadlariga transformatsiya qilish imkoniyatini belgilab beruvchi iqtisodiy-huquqiy kategoriya sifatida tadqiq qilinishi lozim. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotning nazariy muammosi soliq bazasining nominal kengayishi bilan uning davlat budjeti daromadlari barqarorligiga real ta'sirini farqlash zaruratidan iborat.



Soliq bazasining huquqiy mazmuni O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida aniq belgilangan. "Soliq kodeksining 69-moddasiga muvofiq, soliq solish obyekti, soliq bazasi, soliq stavkasi, soliq davri, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi soliqning asosiy elementlari hisoblanadi. Kodeksning 70-moddasi soliq solish obyekti soliq majburiyati vujudga kelishiga asos bo'ladigan mol-mulk, harakat, harakat natijasi yoki boshqa holat sifatida belgilasa, 71-moddaga muvofiq, soliq bazasi soliq solish obyekti qiyamat, fizik yoki boshqa xususiyatini ifodalaydi. Har bir soliq bo'yicha soliq bazasi hamda uni aniqlash tartibi Soliq kodeksi bilan belgilanadi" [1]. Mazkur huquqiy ta'rif soliq bazasining soliqni hisoblash jarayonidagi o'rnini aniq belgilaydi, shu bilan birga, uning iqtisodiy mazmuni huquqiy ta'rifga nisbatan kengroq ko'lamni qamrab oladi.

Iqtisodiyotda yuzaga kelgan har qanday daromad, foyda, mulk yoki operatsiyaning amaldagi soliq bazasiga aylanishi soliq qonunchiligida belgilangan tegishli mezon va tartiblarga bog'liq. Soliq qonunchiligida belgilangan soliq solish obyektlari, chegirmalar, imtiyozlar, soliqqa tortilmaydigan minimumlar, zararlarni keyingi davrlarga o'tkazish tartibi, amortizatsiya qoidalari va boshqa mexanizmlar iqtisodiy qiymatning qaysi qismi amalda soliqqa tortilishini belgilaydi. Shu ma'noda, soliq bazasi iqtisodiyotda yaratilgan qiymat bilan davlat tomonidan amalda soliqqa tortiladigan qiymat o'rtasidagi institutsional chegarani ifodalaydi. Demak, huquqiy yondashuv soliq bazasining hisob-kitob chegarasini belgilasa, iqtisodiy yondashuv uning shakllanish manbalari, institutsional qamrovi va fiskal ahamiyatini ochib beradi.

Soliq bazasini to'g'ri talqin qilish uchun "soliq solish obyekti", "soliq bazasi", "soliq salohiyati" va "soliq tushumi" kategoriyalarini farqlash zarur. Soliq solish obyekti soliq majburiyatini yuzaga keltiruvchi iqtisodiy yoki huquqiy fakt bo'lsa, soliq bazasi mazkur obyektning soliqni hisoblash maqsadida qabul qilinadigan miqdoriy, qiymat yoki fizik ifodasidir. Soliq salohiyati esa mavjud iqtisodiy resurslar va amaldagi qonunchilik sharoitida budjetga safarbar qilinishi mumkin bo'lgan ehtimoliy soliq resurslarini ifodalaydi. Soliq tushumi esa ushbu jarayonning yakuniy moliyaviy natijasi – budjetga amalda kelib tushgan mablag' hisoblanadi. Ushbu kategoriyalarning bir-biriga yaqinligi ularning o'ziga xos mazmuniy xususiyatlarini alohida talqin etishni taqozo etadi. Shu jihatdan, fiskal jarayonning nazariy ketma-ketligi iqtisodiy faoliyatning shakllanishi, soliq solish obyekti yuzaga kelishi, soliq bazasining aniqlanishi, soliq stavkasining qo'llanilishi, soliq majburiyatining hisoblanishi va natijada soliq tushumlarining budjetga kelib tushishi kabi o'zaro bog'liq bosqichlar orqali namoyon bo'ladi. Bu zanjirda soliq bazasi iqtisodiy faoliyat natijasi bilan davlat budjeti daromadi o'rtasidagi asosiy hisob-kitob va institutsional bo'g'in hisoblanadi. Mazkur nazariy farq keyingi empirik tahlilda soliq bazasidagi o'zgarishlarni soliq tushumlarining nominal o'sishidan alohida baholash uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy tadqiqotlarda soliq bazasining iqtisodiy mohiyati va uni kengaytirish masalalari keng o'rganilgan. Xususan, K. Hamada soliq bazasini kengaytirishni iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan tadqiq etib, turli soliqlarning iqtisodiy rag'batlar va davlat daromadlarini safarbar qilishga ta'siri bir xil emasligini asoslaydi. U yer va mol-mulk, shaxsiy daromad, tashqi savdo hamda qo'shilgan qiymat soliqlarining xususiyatlarini taqqoslab, davlat daromadlarini oshirish faqat soliq stavkalarini ko'tarish orqali emas, balki soliqqa tortish manbalarini kengaytirish orqali ham amalga oshirilishi mumkinligini ko'rsatadi [2].

K. Hamadaning yondashuviga ko'ra, soliq bazasini kengaytirish soliq yukini mexanik ravishda oshirish emas, balki yangi iqtisodiy manbalarni soliqqa jalb etish, mavjud obyektlarni to'liqroq hisobga olish va soliqqa tortilmayotgan iqtisodiy qiymatni aniqlashni anglatadi. Bu esa budjet daromadlarini iqtisodiy rag'batlarga ta'sirini maqbullashtirgan holda oshirish imkonini beradi.

R. Bird rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq tizimini isloh qilishning uchta o'zaro bog'liq yo'nalishini — soliq bazasini kengaytirish, soliq stavkalarini maqbullashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishni ajratadi [3]. Uning ta'kidlashicha, soliq islohotlarining samaradorligi nafaqat soliq stavkalari va huquqiy normalarga, balki iqtisodiy sharoit, ma'muriy imkoniyatlar, texnologik salohiyat va siyosiy institutlarga ham bog'liq.

R. Bird yondashuvining muhim jihati shundaki, soliq bazasini kengaytirish faqat qo'shimcha daromad olish vositasi emas, balki soliq siyosati va ma'muriyatchilikning o'zaro uyg'unligini ta'minlovchi institutsional jarayon sifatida qaraladi. Bunda yangi soliq to'lovchilarni tizimga jalb qilish, soliq majburiyatlarini bajarishni soddalashtirish va soliq tizimiga bo'lgan ishonchni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

V. Tanzi va H. Zeelar rivojlanayotgan davlatlarda samarali va adolatli soliq tizimini shakllantirishning o'ziga xos jihatlarni iqtisodiyotning tarkibiy xususiyatlari, ma'muriy imkoniyatlar, soliq imtiyozlari hamda xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari bilan bog'laydilar. Ularning ta'kidlashicha, soliq tizimi davlat xarajatlarini



moliyalashtirish uchun yetarli daromadlarni safarbar qilishi bilan birga, iqtisodiy qarorlarning samarali qabul qilinishiga ko'maklashishi kerak [4]. Shu yondashuvdan kelib chiqib, soliq bazasining kengligi faqat ko'proq soliq undirishni emas, balki iqtisodiyotdagi potensial manbalarni xolis va samarali qamrab olish darajasini ham ifodalaydi. Shu sababli soliq imtiyozlari va istisnolarni maqbullashtirish rasmiy soliq bazasining barqarorligini ta'minlashga, shuningdek, bir xil iqtisodiy sharoitda faoliyat yurituvchi subyektlar o'rtasida soliq yukining mutanosib taqsimlanishiga xizmat qilishi mumkin.

E. Auriol va M. Warlters rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq bazasiga norasmiy sektor va soliq ma'muriyatchiligi xarajatlarining ta'sirini o'rganadilar. 64 ta mamlakat ma'lumotlari asosida ular norasmiy sektor hajmining soliq tushumlarini safarbar qilish imkoniyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqlaydilar [5]. Bu esa soliq bazasini kengaytirish uchun huquqiy normalar bilan bir qatorda, soliqni hisobga olish, nazorat qilish va undirish bo'yicha ma'muriy salohiyat ham zarurligini anglatadi. Shu sababli potensial va amalda safarbar qilinadigan soliq bazasi o'rtasidagi farqlarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan soliq munosabatlarining nazariy va amaliy jihatlarini mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab tizimli ravishda tadqiq etilgan. Jumladan, Q. Yahyoevning "Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti" asarida soliqning iqtisodiy mohiyati, funksiyalari, soliqqa tortish tamoyillari, soliq tizimi, soliq to'lovchilar, soliq obyektlari, imtiyozlar hamda soliqlarni hisoblash va to'lash mexanizmlari yoritilgan [6]. Keyingi tadqiqotlarda Q. Yahyoev, A. Vahobov va E. Akramovlar soliqqa tortish nazariyasini O'zbekiston amaliyoti bilan uzviy bog'liq holda o'rgananganlar [7].

Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, soliq bazasini faqat alohida matematik ko'rsatkich sifatida emas, balki soliq to'lovchi, soliq obyekti, imtiyozlar, stavka, hisoblash va to'lash mexanizmlari bilan bog'liq yagona tizimning tarkibiy qismi sifatida baholash maqsadga muvofiq. Ushbu qarash O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida soliq bazasining soliqning mustaqil elementi sifatida belgilangan huquqiy maqomiga ham mos keladi.

So'nggi yillarda soliq bazasini kengaytirishning maxsus sohaviy mexanizmlari bo'yicha ham tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, A.A. Kamilov "foydali qazilmalar sohasida soliq bazasini kengaytirishni soliq ma'muriyatchiligi instrumentlari, huquqbuzarliklarni aniqlash, soliq to'lashdan bo'yin tovlash sxemalarini barvaqt oshkor qilish va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'laydi" [8]. Ushbu yondashuv soliq bazasini kengaytirish faqat qonunchilik parametrlarini o'zgartirish orqali emas, balki mavjud soliqqa tortiladigan obyektlarni to'liq va ishonchli aniqlash orqali ham amalga oshirilishini ko'rsatadi.

Mavjud adabiyotlarda soliq bazasini kengaytirish budjet daromadlarini oshirishning muhim omili sifatida qaraladi. Bunda soliq stavkalarini oshirish bilan bir qatorda, soliq manbalarini kengaytirish, norasmiy sektorni bosqichma-bosqich rasmiy iqtisodiy faoliyatga jalb etish, imtiyozlarni maqbullashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishga ustuvor ahamiyat beriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda soliq bazasining budjet daromadlariga ta'sirini baholash uchun tizimli, qiyosiy, statistik va ekonometrik tahlil usullaridan foydalanildi. Soliq bazasining fiskal samaradorligi uning hajmi, kengligi, diversifikatsiyasi va barqarorligi asosida baholandi.

Soliq bazasining YaIMga nisbati, soliq tushumlarining soliq bazasiga nisbati hamda soliq tushumlari tarkibining konsentratsiyasi asosiy ko'rsatkichlar sifatida olindi. Shuningdek, soliq tushumlari o'sishiga soliq bazasi va soliq stavkasining ta'siri alohida tahlil qilindi.

Tadqiqotda O'zbekistonning soliq va budjet ko'rsatkichlari dinamikasi asosida korrelyatsion va regressiya tahlillari qo'llanilib, soliq bazasining kengayishi davlat budjeti daromadlari va ularning barqarorligiga qanday ta'sir ko'rsatishi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha davlat siyosatining mazmuni bilan ham uyg'un. Xususan, soliq solish obyektlari va soliq solinadigan bazani o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olish, hududlarning soliq salohiyatini tahlil qilish, soliq obyektlarini to'liq qamrab olish va soliq bazasini kengaytirish soliq ma'muriyatchiligining muhim vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Xorijiy, MDH va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining yuqorida ko'rib chiqilgan yondashuvlarini qiyosiy umumlashtirish maqsadida ular 1-jadvalda tizimlashtirildi.



Soliq bazasi va uni kengaytirish masalasiga oid ilmiy yondashuvlarning qiyosiy tavsifi

Muallif	Ilmiy yondashuvning asosiy mazmuni	Tadqiqotimiz uchun ahamiyati
K. Hamada	Soliq manbalarini iqtisodiy samaradorlik va daromadlarni safarbar qilish imkoniyati bo'yicha baholaydi	Bazani kengaytirishni stavkani oshirishdan farqlash
R.M. Bird	Keng baza, maqbul stavkalar va samarali ma'muriyatchilikni soliq islohotining o'zaro bog'liq yo'nalishlari sifatida ko'radi	Bazani institutsional islohotlar bilan bog'lash
V. Tanzi, H. Zee	Samarali va adolatli soliq tizimini iqtisodiy tuzilma, imtiyozlar va ma'muriy imkoniyatlar bilan bog'laydi	Baza kengligi va soliq tizimi samaradorligini uyg'un baholash
E. Auriol, M. Warlters	Norasmiy sektor va ma'muriy xarajatlarning soliqqa tortish imkoniyatlariga ta'sirini tahlil qiladi	Potensial va real safarbar qilinadigan bazani farqlash
L. Kawano, J. Slemrod	Soliq stavkasi va baza parametrlari mustaqil, ammo o'zaro bog'liq ekanini empirik jihatdan asoslaydi	Soliq tushumlari tahlilida baza o'zgarishini alohida hisobga olish
E. Dabla-Norris, F. Lima	Bazani kengaytirishning makroiqtisodiy ta'sirini stavkani oshirish bilan qiyoslaydi	Bazani kengaytirishning iqtisodiy afzalliklarini baholash
H. Ault, B. Arnold	Soliq bazasini kengaytirish va uni eroziyadan himoya qilishni farqlaydi	Transchegaraviy operatsiyalar va BEPS xavfini hisobga olish
V.G. Panskov	Soliq bazasini obyektning qiymat/fizik ifodasi sifatida hamda prognozlash obyekti sifatida ko'radi	"Baza" va "soliq salohiyati"ni ajratish
I.A. Mayburov	Imtiyozlar va soliq xarajatlarning soliq bazasiga ta'sirini tizimli baholaydi	Imtiyozlarni optimallashtirish orqali bazaga ta'sirni asoslash
Q. Yahyoev, A. Vahobov	Soliq elementlari va soliqqa tortish mexanizmini o'zaro bog'liq tizimda talqin qiladi	Milliy soliq tizimida bazaning o'rnini aniqlash
T.S. Malikov	Soliq siyosati, soliq yuki va soliqqa tortishning nazariy-amaliy muammolarini tadqiq etadi	Baza kengligi bilan soliq yuki o'rtasidagi munosabatni ochib berish
A.S. Jo'raev	Davlat budjeti daromadlarini shakllantirish va mustahkamlash masalalarini tadqiq etadi	Soliq bazasini budjet daromadlari bilan bog'lash
A.A. Kamilov	Soliq ma'muriyatchiligi va nazorat orqali soliq bazasini kengaytirish mexanizmlarini asoslaydi	Bazaning mavjud rezervlarini ma'muriy jihatdan aniqlash

1-jadvalda keltirilgan qarashlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, "soliq bazasi" tushunchasiga nisbatan turli ilmiy yondashuvlar mavjud. Uning huquqiy ta'rifi aniq belgilangan bo'lib, iqtisodiy mohiyati bir nechta o'lovchi qamrab oladi. Bir guruh olimlar soliq bazasini soliq obyektining hisob-kitob ifodasi sifatida ko'rsa, ikkinchi guruh uni budjet daromadlarini shakllantirishning asosi sifatida qaraydi. Zamonaviy tadqiqotlarda esa soliq bazasi norasmiy iqtisodiyot, imtiyozlar, ma'muriyatchilik, raqamlashtirish va transchegaraviy foydani ko'chirish bilan bog'liq dinamik institutsional kategoriya sifatida talqin etilmoqda.

Shundan kelib chiqib, soliq bazasining miqdoriy va sifat jihatlarini farqlash maqsadga muvofiq. Uning miqdoriy jihati soliqqa tortiladigan daromad, foyda, iste'mol, mol-mulk, resurslar va aylanmalar hajmini ifodalaydi. Sifat jihati esa ushbu bazaning barqarorligi, diversifikatsiyalanganligi, shaffofligi, ma'muriy jihatdan aniqlanuvchanligi va budjet daromadlarini uzoq muddat davomida ta'minlash qobiliyatini tavsiflaydi. Bu yerda "soliq bazasini kengaytirish" tushunchasiga ham aniq ilmiy mazmun berish talab etiladi. Soliq bazasini kengaytirish yangi soliqlarni joriy etish yoki soliq stavkalarini oshirish bilan bir qatorda, soliqqa tortish qamrovini takomillashtirish bilan ham uzviy bog'liqdir. Baza kengayishi iqtisodiyotda soliqqa tortish doirasidan tashqarida qolayotgan subyektlar va obyektlarni aniqlash, iqtisodiy faoliyatning rasmiylashuvini oshirish, soliq solish obyektlari qamrovini zamonaviy iqtisodiy munosabatlarga muvofiqlashtirish, baza barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi imtiyozlarni qayta ko'rib chiqish va mavjud bazani eroziyadan himoya qilish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Shu asosda soliq bazasi hajmining o'zgarishini belgilovchi to'rtta asosiy mexanizmni ajratish mumkin. Birinchisi – iqtisodiy kengayish, ya'ni YaIM, tadbirkorlik faoliyati, aholi daromadlari, korxonalar foydasi, iste'mol va mol-mulk hajmining o'sishi natijasida soliqqa tortilishi mumkin bo'lgan iqtisodiy qiymatning tabiiy ko'payishi. Ikkinchisi – institutsional kengayish, ya'ni iqtisodiyotda mavjud, ammo amalda soliq munosabatlariga to'liq jalb qilinmagan subyekt va obyektlarni rasmiy tizimga kiritish. Uchinchisi – ma'muriy kengayish, ya'ni soliq bazasining yashirin yoki to'liq hisobga olinmagan qismini axborot almashinuvi, nazorat va raqamli vositalar



yordamida aniqlash. To'rtinchisi – bazani himoya qilish, ya'ni imtiyozlar, agressiv soliq rejalashtirish, foydani ko'chirish va boshqa mexanizmlar orqali mavjud soliq bazasining sun'iy qisqarishining oldini olish. Mazkur klassifikatsiyada iqtisodiy kengayish soliq siyosatining bevosita natijasi emas, balki makroiqtisodiy faollik hisobiga soliq bazasining tabiiy o'sishini ifodalaydi. Institutsional va ma'muriy kengayish davlat soliq siyosati hamda soliq ma'muriyatchiligining bevosita ta'sir mexanizmlari hisoblansa, bazani himoya qilish mavjud soliq salohiyatining barqarorligini ta'minlash vazifasini bajaradi.

Bunda soliq bazasi kengayishining barcha shakllari turlicha iqtisodiy natijalarni yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, faoliyat yuritmaydigan subyektlarni formal ravishda soliq to'lovchilar ro'yxatiga kiritish statistik qamrovni oshirishi mumkin, ammo real budjet tushumlarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmaydi. Shu sababli soliq bazasini kengaytirish natijasini faqat soliq to'lovchilar soni bilan baholash kompleks yondashuvni talab etadi. Real iqtisodiy faollik, yaratilgan qo'shilgan qiymat, soliq majburiyati va uning budjetga amalda tushishi o'rtasidagi bog'liqlik hisobga olinishi lozim. Mazkur jihat zamonaviy xalqaro yondashuvlarda "tax capacity" kategoriyasi orqali yanada keng talqin qilinmoqda. IMFning so'nggi tadqiqotlarida "soliq salohiyati davlat institutsional salohiyati va barqaror rivojlanishning muhim elementi sifatida baholanib, soliq siyosati, qonunchilik va ma'muriyatchilikni birgalikda takomillashtirish, bazani kengaytirish, soliq imtiyozlarini ratsionallashtirish va komplaensni oshirish kompleks yondashuv sifatida taklif etilgan" [9].

OECDning "zamonaviy soliq islohotlari tahlili ham davlatlar qo'shimcha budjet resurslarini shakllantirishda soliq stavkalarini o'zgartirish bilan bir qatorda, bazani kengaytirish, ayrim imtiyoz va chegirmalarni qayta ko'rib chiqish choralaridan tobora ko'proq foydalanayotganini ko'rsatadi. 2023-yilga oid islohotlarda bir qator yurisdiksiyalarda bazani kengaytirish choralari kuchaygan" [10, 11]. Bu holat soliq bazasi masalasi nazariy kategoriya bo'lib qolmasdan, zamonaviy fiskal siyosatning amaliy instrumentiga aylanganini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, soliq bazasiga quyidagi mualliflik ta'rifini berish maqsadga muvofiq deb bildik: soliq bazasi – milliy iqtisodiyotda shakllangan daromad, foyda, iste'mol, mol-mulk, resurslar va boshqa iqtisodiy qiymatlarning soliq qonunchiligi asosida soliqqa tortish doirasiga kiritilgan, ma'muriy jihatdan aniqlanadigan va muayyan soliq majburiyatini shakllantirish orqali davlat budjeti daromadlariga transformatsiyalanish salohiyatiga ega bo'lgan qismi hisoblanadi. Ushbu ta'rifning amaldagi huquqiy ta'rifdan farqi shundaki, unda soliq bazasining faqat hisob-kitob xususiyati emas, balki iqtisodiy manbasi, institutsional chegarasi, ma'muriy aniqlanuvchanligi va fiskal natija yaratish salohiyati bir butun holda qamrab olinadi. Shu bilan birga, mazkur ta'rif soliq bazasini soliq salohiyati yoki soliq tushumi bilan tenglashtirmaydi. Aksincha, u mazkur kategoriyalarning o'zaro bog'liqligini saqlagan holda, ularning funksional farqini belgilaydi.

Shuningdek, soliq bazasini kengaytirish deganda iqtisodiy faoliyatning soliqqa tortish salohiyatini to'laroq qamrab olish, soliq munosabatlaridan tashqarida yoki yetarlicha qamrab olinmagan subyektlar va obyektlarni qonuniy soliq maydoniga jalb qilish, iqtisodiy jihatdan asoslangan holda bazani toraytiruvchi mexanizmlarni optimallashtirish hamda mavjud soliq bazasining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, huquqiy va ma'muriy choralar tizimini tushunishni taklif etamiz. Bu yerda muhim masala soliq bazasining shunchaki keng bo'lishi emas, balki uning diversifikatsiyalangan bo'lishidir. Davlat budjeti daromadlarining bitta soliq turi, muayyan tarmoq yoki cheklangan yirik soliq to'lovchilar guruhiga yuqori darajada bog'lanishi tashqi yoki ichki iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida budjet tushumlarining o'zgaruvchanligini kuchaytirishi mumkin. Turli iqtisodiy manbalar – daromad, foyda, iste'mol, mol-mulk va resurslarga asoslangan soliq bazalarining maqbul kombinatsiyasi esa bunday konsentratsiya darajasini kamaytirishga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan soliq bazasining iqtisodiy sifatini uchta mezon bilan baholash mumkin:

- **kenglik**, ya'ni soliqqa tortiladigan iqtisodiy faoliyatni qamrab olish darajasi;
- **diversifikatsiya**, ya'ni turli soliq manbalari o'rtasidagi maqbul tarkibiy nisbat;
- **barqarorlik**, ya'ni iqtisodiy sikllar va tashqi o'zgarishlar sharoitida bazaning barqarorligini saqlash qobiliyati.

Ushbu uch mezon birgalikda soliq bazasining budjet barqarorligini ta'minlashdagi real fiskal ahamiyatini belgilaydi. Mazkur mezonlarni empirik baholashda kenglik soliqqa tortiladigan iqtisodiy faoliyat va tushumlar qamrovi, diversifikatsiya soliq turlari va asosiy to'lovchilar kesimidagi konsentratsiya darajasi, barqarorlik esa budjet daromadlarining vaqt bo'yicha o'zgaruvchanligi hamda prognozdan og'ish darajasi orqali ifodalanishi mumkin.

Mazkur yondashuvning konseptual natijasini quyidagi o'zaro bog'liqlik asosida ifodalash mumkin:

- iqtisodiy faoliyat va yaratilgan qiymat
- potensial soliq bazasi
- soliq qonunchiligi va institutsional chegaralar
- amaldagi soliq bazasi
- soliq ma'muriyatchiligi va komplaens
- real soliq tushumlari
- budjet daromadlarining diversifikatsiyasi va barqarorligi.



Ushbu zanjir soliq bazasining iqtisodiyotda yaratilgan umumiy qiymatdan budgetga amalda tushadigan soliq daromadlarigacha bo'lgan jarayonda oraliq, ammo hal qiluvchi o'rin egallashini ko'rsatadi. Bunda iqtisodiyotda yaratilgan barcha qiymatning soliq bazasiga aylanishi qonunchilikda belgilangan tegishli mezonlarga bog'liq. Qonunchilikda belgilangan soliq solish obyektlari, chegirmalar va imtiyozlar mazkur qiymatning qaysi qismi amalda soliqqa tortilishini belgilaydi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirib, bizning fikrimizcha, soliq bazasining budget barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyati uning faqat miqdoriy kengayishi bilan emas, balki tarkibiy diversifikatsiyasi, iqtisodiy faollikni qamrab olish darajasi, ma'muriy jihatdan aniqlanuvchanligi va mavjud bazaning barqaror himoyalanganligi bilan belgilanadi. Shu sababli soliq bazasini kengaytirishni soliq stavkalarini oshirishga muqobil bo'lgan oddiy fiskal chora sifatida emas, balki iqtisodiyotda mavjud soliqqa tortish salohiyatini to'laroq ro'yobga chiqarish, soliq yukini kengroq iqtisodiy subyektlar o'rtasida taqsimlash va budget daromadlari manbalarini diversifikatsiya qilishga qaratilgan kompleks iqtisodiy-institutsional jarayon sifatida baholash maqsadga muvofiq [12].

Shunday qilib, soliq bazasining kengligi davlat budjeti daromadlarini shakllantirish imkoniyatlarini belgilasa, uning tarkibiy diversifikatsiyasi va barqarorligi ushbu daromadlarning iqtisodiy tebranishlar sharoitida barqarorligini saqlash darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, budget barqarorligi soliq bazasi bilan bir qatorda, soliq tushumlarining elastikligi, budget xarajatlari samaradorligi, davlat qarzi, makroiqtisodiy muhit va institutsional omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, soliq bazasi davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning muhim omili bo'lib, uning fiskal samaradorligi faqat hajmi bilan emas, balki kengligi, diversifikatsiyasi va barqarorligi bilan ham belgilanadi. Soliq bazasini kengaytirish soliq stavkalarini oshirish bilangina emas, balki norasmiy iqtisodiy faoliyatni bosqichma-bosqich rasmiylashtirish, soliqqa tortish doirasidan chetda qolayotgan subyekt va obyektlarni aniqlash, soliq imtiyozlarini maqbullashtirish hamda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish orqali amalga oshirilishi lozim.

Shu asosda soliq bazasini baholashda uning YalMga nisbati, soliq tushumlarining soliq bazasiga nisbati, tarkibiy diversifikatsiyasi va barqarorligini hisobga olish taklif etiladi. Shuningdek, raqamli nazorat va axborot almashinuvini rivojlantirish, hududlarning soliq salohiyatini muntazam baholash hamda soliq imtiyozlarini iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, soliq bazasini kengaytirish davlat budjeti daromadlarini oshirish bilan birga, ularning barqarorligini ta'minlash, soliq yukini adolatli taqsimlash va fiskal xavflarni kamaytirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси (янги таҳрир) // Ўзбекистон Республикасининг 2019-йил 30-декабрдаги ЎРҚ-599-сон «Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодексига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги Қонуни.
2. Hamada K. Broadening the Tax Base: The Economics Behind It // Asian Development Review. – 1994. – Vol. 12, No. 2. – P. 51–84. – DOI: 10.1142/S0116110594000096.
3. Bird R. M. Tax Challenges Facing Developing Countries. – National Institute of Public Finance and Policy Working Paper, 2008.
4. Tanzi V., Zee H. H. Tax Policy for Developing Countries. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2001. – IMF Economic Issues. – No. 27. – DOI: 10.5089/9781589060203.051.
5. Auriol E., Warlters M. Taxation Base in Developing Countries // Journal of Public Economics. – 2005. – Vol. 89, No. 4. – P. 625–646. – DOI: 10.1016/j.jpubeco.2004.04.008.
6. Яхёев Қ. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти: дарслик. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 168 б.
7. Яхёев Қ., Ваҳобов А., Акрамов Э. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти: дарслик. – Тошкент: Фан ва технология, 2003. – 247 б.
8. Камиллов А. А. Фойдали қазилмаларни назорати маркшейдерлик ишларини ташкил этган ҳолда солиқ базасини кенгайтириш масалалари // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2024. – T. 2, № 4. – Б. 403–411. – DOI: 10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss4-pp403-411.
9. Baer K., Bellon M., Davies M., de Mooij R., Gaspar V., Lemgruber A., Mansour M., Sawadogo F., Takebe M., Vellutini C. Building Tax Capacity for Growth and Development: Evidence-Based Analysis for Mobilizing



- Domestic Revenue. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2025. – Departmental Paper No. 2025/007. – 48 p. – DOI: 10.5089/9798229027298.087.
10. OECD. Tax Policy Reforms 2024: OECD and Selected Partner Economies. – Paris: OECD Publishing, 2024. – 70 p. – DOI: 10.1787/c3686f5e-en.
 11. OECD. Choosing a Broad Base – Low Rate Approach to Taxation. – Paris: OECD Publishing, 2010. – OECD Tax Policy Studies. – No. 19.
 12. International Monetary Fund. Revenue Mobilization in Developing Countries. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2011. – IMF Policy Paper.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>